

TINCHLANTIRUVCHI BALZAMNING TARKIBI UCHUN DORIVOR O'SIMLIK XOM ASHYOLARINI TANLASH

Yaxshimurodov A.H.¹ Xolov J.X.² Xaydarov V.R.³

¹⁻²⁻³Toshkent farmatsevtika instituti,

Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

e-mail:vosiljonxaydarov@mail.com, tel. (97) 725-74-60

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7214331>

Dolzarliligi. Bizning bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizda, kundalik stressni boshdan kechirgan aksariyat fuqarolarimiz tinchlantiruvchi dori vositalarini qabul qilishadi. Biroq bu borada tabiiy dorivor o'simlik xomashyolaridan olingan dori vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ham bor ekanligini barchaga ham ma'lum emas. Masalan, turli xil tinchlantiruvchi fitopreparatlar ham stressni yengishda yordam beradi. Shunday ekan, bu turdagi dori vositalar assortimentini ko'paytirish sohaning dolzarb masalaridan biridir.

Maqsad. Tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lgan balzamning tarkibi uchun, mahalliy dorivor o'simlik xomashyolarining turi va nisbatlarini tanlash.

Usul va uslublar. Tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lgan yig'maning tarkibini tanlashda xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda eng ko'p ishlatiladigan dorivor o'simlik xom ashyolariga murojaat etildi. Buning uchun adabiyotlar manbaalariga tayangan xolda tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simlik xom ashyolari tanlab olindi. Tarkiblar uchun valeriana ildizi va ildizpoyasi, qora andiz ildizi, limono't yer ustki qismi, qalampir yalpiz barglari, arslonquyruq o'ti, moychechak gullari, tog'rayhon yer ustki qismi, shuvoq barglari va dalachoy yer ustki qismidan foydalanildi. Bu o'simliklarda yig'ma tarkibini tanlashda 1:1 nisbatdan foydalanildi. Dorivor o'simlik xom ashyolari aralashmalaridan damlamalar tayyorlanib, ularni tinchlantiruvchi ta'siri o'rganildi. O'rganilgan tarkiblarning tinchlantiruvchi ta'siri terapevtik samaradorlik bo'yicha baxolandi, ya'ni "kuchli", "o'rtacha", "kuchsiz" va "juda past" ko'rsatkichlari bilan tarkiblar bir biri bilan qiyosiy o'rganildi.

Yig'maning tarkibidagi ekstraktiv moddalar miqdori aniqlandi. Buning uchun teshigining diametri 1 mm li elakdan o'tkazilgan 1 g atrofidagi maydalangan xom ashyo (aniq tortma) 200-250 ml li konussimon kolbaga solinib, unga shu xom ashyoning MTH da ko'rsatilgan erituvchisidan 50 ml qo'shildi. Kolba probka bilan yopilib tortildi (aniqlik 0,01 g) va 1 soatga qo'yib qo'yildi. So'ngra kolbani tik xolatdagi sovutgich bilan birlashtirib, 2 soat davomida asta-sekin qaynatildi. Kolba sovugandan keyin uni yana avvalgi probka bilan yopib tortiladi va 1 soatga qo'yib qo'yiladi. So'ngra kolba tik xolatdagi sovutgich bilan birlashtirilib, 2 soat davomida asta sekinlik bilan qaynatildi. Kolba sovugandan keyin uni yana

avvalgi probka bilan yopib tortildi va yo'qotilgan og'irlik erituvchi bilan to'ldirildi. Kolbadagi xom ashyo va erituvchi yaxshilab aralashtirildi. Aralashma 150-200 ml li quruq kolbaga quruq filtr qog'oz orqali filtrlandi. 25 ml filtratni diametri 7-9 sm li, avvaldan 100-105oS haroratda quritib, doimiy og'irlikka keltirilgan chinni kosachaga solinadi va suv xamomida quriguncha bug'latildi. CHinni kosacha qoldiq bilan birga 100-105oS haroratda doimiy og'irlikkacha quritildi. So'ngra 30 daqiqa davomida tagiga suvsiz kalsiy xlorid solingan eksikatorida sovutib tez tortildi. Ekstraktiv moddalarning miqdori foizlarda absolyut quruq xom ashyoga nisbatan tenglama bilan xisoblandi.

Natijalar. Olingan natijalar valeriana ildizi va ildizpoyasi, qora andiz ildizi, limono't yer ustki qismi, qalampir yalpiz barglari, arslonquyruq o'ti, moychechak gullari, tog'rayhon yer ustki qismi, shuvoq barglari va dalachoy yer ustki qismidan tayyorlangan tarkib eng yuqori terapevtik samaradorlikni namoyon etganligini ko'rsatdi.

Hulosalar. Valeriana ildizi va ildizpoyasi, qora andiz ildizi, limono't yer ustki ismi, qalampir yalpiz barglari, arslonquyruq o'ti, moychechak gullari, tog'rayhon yer ustki qismi, shuvoq barglari va dalachoy er ustki qismidan iborat bo'lgan balzamning tarkibi uchun dorivor o'simlik xom ashyolari va ularning nisbati tanlab olindi.